


## II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022- yil yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3 833,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 115,7 foizni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 109,3 % ga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 28,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 95,7 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 101,7 % ga o'sishi kuzatildi.

### Asosiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %

2021- yil yanvar-mart



2022- yil yanvar-mart



Tog' -kon sanoati va ochiq konlari ishlashi



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash havoni konditsiyalash




Ishlab chiqariladigan sanoat



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi mlrd. so‘m



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2022- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,007 % ni va o‘shir sur‘ati indeksi 28,4 % ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 709,7 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,760 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ning ulushi 0,06 % ni (2021- yil yanvar-mart oylarida – 0,04 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 41,7 % (43,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,8 % (3,4 %) va quyi texnologiyali – 52,1 % (48,5 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**



Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 2,4 mlrd. soʻmlik (2021- yil yanvar-mart oylarida 1,0 mlrd. soʻm), oʻrta-yuqori texnologiyali tarmoqda 1599,2 mlrd. soʻmlik (1060,3 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 108,8 mlrd. soʻmlik (83,1 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 1999,3 mlrd. soʻmlik (1190,0 mlrd. soʻm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan  
natura koʻrinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(2022- yil yanvar-mart oylari uchun)**

| <i>Mahsulot turlari</i>                           | <i>Oʻlchov birligi</i> | <i>2022- yil yanvar-mart</i> | <i>2021- yil yanvar-mart</i> | <i>2021- yil yanvar-martga nisbatan, % da</i> |
|---|------------------------|------------------------------|------------------------------|---|
| Engil avtomobillar (maxsus engil avtomobillarsiz) | dona                   | 17329,0                      | 12051,0                      | 143,8   |
| Maxsus engil avtomobillar                         | dona                   | 3879,0                       | 2564,0                       | 151,3   |
| Aroq  | ming litr              | 10,1                         | 27,2                         | 37,2  |

| <i>Mahsulot turlari</i>   | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2022- yil yanvar-mart</i> | <i>2021- yil yanvar-mart</i> | <i>2021- yil yanvar-martiga nisbatan, % da</i> |
|---|------------------------|------------------------------|------------------------------|--|
| Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari | ming litr              | 5,8                          | 3,0                          | 191,7  |
| Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari   | ming litr              | 93,3                         | 137,0                        | 68,1   |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni   | tonna                  | 20939,8                      | 22180,7                      | 94,4   |
| Tozalangan o'simlik yog'i   | tonna                  | 4278,7                       | 5905,9                       | 72,4   |
| Xo'jalik sovuni   | tonna                  | 762,76                       | 1061,3                       | 105,6  |
| Paxta tolasi  | tonna                  | 18201,3                      | 14058,5                      | 129,5  |
| Paxta chigiti   | tonna                  | 43297,3                      | 32113,3                      | 134,8  |
| Shakar  | tonna                  | 69028,1                      | 65465,3                      | 105,4  |

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi - 28,1 mln. kVts. ga, issiqlik energiyasi - 44,6 ming Gkal. ga, aroq – 10,1 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari - 93,3 ming litrga, yumshoq bug'doy va spelta uni – 20939,8 tonnaga ishlab chiqarish kamaygan.

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 101,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,659 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati indeksi 95,7 % ga oshganligi kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2022- yil yanvar-mart oylari uchun)**

|                     | <i>O‘lchov birligi</i> | <i>2022- yil yanvar-mart</i> | <i>2021- yil yanvar-mart</i> | <i>2021- yil yanvar-martiga nisbatan, % da</i> |
|---------------------|------------------------|------------------------------|------------------------------|--|
| Elektroenergiya     | mln.kVt/s              | 28,1                         | 46,2                         | 60,9   |
| Issiqlik energiyasi | ming Gkall             | 44,6                         | 47,1                         | 94,6   |

**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,574 % ni) tashkil etdi.

**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2022- yil yanvar-mart oylari uchun)**

| <i>Faoliyat turlari</i>  | <i>O‘lchov birligi</i> | <i>2022- yil yanvar-mart</i> | <i>2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da</i> |
|--|------------------------|------------------------------|--|
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar                        | mlrd.so‘m              | 26,8                         | 109,3  |
| Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar               | mlrd.so‘m              | 1,6                          | 155,7  |
| Shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar | mlrd. so‘m             | 5,2                          | 94,9   |

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**  
(2022- yil yanvar-mart oylari uchun)


| <i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>  | <i>2022- yil yanvar-<br/>mart</i> | <i>2021- yil yanvar-<br/>mart</i> |
|--|-----------------------------------|-----------------------------------|
| <b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami</b> | <b>3 833,9</b>                    | <b>2 455,9</b>                    |
| <b>Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>   | <b>0,3</b>                        | <b>0,3</b>                        |
| <i>ulardan:</i>  |                                   |                                   |
| Tog'- kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat  | 2,4                               | 1,0                               |
| <b>Qayta ishlash sanoati</b>   | <b>3 709,7</b>                    | <b>2 334,4</b>                    |
| <i>shundan:</i>  |                                   |                                   |
| Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish  | 866,7                             | 352,7                             |
| Ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish   | 129,3                             | 63,1                              |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish  | 923,1                             | 700,8                             |
| Kiyim ishlab chiqarish   | 9,4                               | 14,0                              |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish   | 2,4                               | 1,5                               |
| Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chiqarish         | 5,4                               | 6,9                               |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish   | 26,7                              | 15,6                              |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish  | 0,1                               | 0,4                               |
| Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish   | 0,1                               | 0,1                               |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish  | 4,3                               | 4,3                               |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish                                     | 2,4                               | 0,8                               |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish   | 12,3                              | 10,4                              |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish   | 45,7                              | 37,8                              |
| Metallurgiya sanoati   | 8,5                               | 2,5                               |

| <i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>   | <i>2022- yil yanvar-<br/>mart</i> | <i>2021- yil yanvar-<br/>mart</i> |
|---|-----------------------------------|-----------------------------------|
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish                        | 29,1                              | 27,5                              |
| Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish                                     | 0,004                             | 0,1                               |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish   | 6,8                               | 6,1                               |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish                            | 60,2                              | 41,4                              |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish                       | 1527,9                            | 1008,5                            |
| Mebel ishlab chiqarish  | 8,2                               | 6,6                               |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish   | 28,2                              | 28,6                              |
| Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish    | 13,0                              | 4,8                               |
| <b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>                              | <b>101,9</b>                      | <b>101,0</b>                      |
| <b>Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b> | <b>22,0</b>                       | <b>20,2</b>                       |


### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 2 355,3 mlrd. so'mni iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 131,1 foizni tashkil qildi.

**2021-2022- yil yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish hajmi va o'sish surati, %**



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat va alkogol mahsulotlari 909,7 mlrd.so'mni va 1445,6 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 119,9 foiz va 139,2 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 38,6 foizni va 61,4 foizni tashkil qildi.







**Hududlar bo'yicha sanoat va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish**  
**(2022- yil yanvar-mart oylari uchun)**  
**(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)**

| <i>Shahar va tumanlar nomi</i> | <i>Sanoat mahsulotlari, mlrd. so'mda 1)</i> | <i>2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi %</i> | <i>Iste'mol tovarlari, mlrd. so'm 1)</i> | <i>2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da</i> |
|--------------------------------|---|---|--|--|
| <b>Xorazm viloyat bo'yicha</b> | <b>3833,9</b>                               | <b>115,7</b>  | <b>2355,3</b>                            | <b>131,1</b>   |
| Urganch sh.                    | 542,5                                       | 107,4   | 272,5                                    | 123,6  |
| Xiva sh.                       | 41,2  | 107,1   | 22,6                                     | 76,3   |
| Bog'ot                         | 78,4  | 106,0   | 31,1                                     | 110,4  |
| Gurlan                         | 147,3                                       | 145,1   | 35,5                                     | 122,5  |
| Qo'shko'pir                    | 133,7                                       | 102,8   | 19,3                                     | 107,0  |
| Urganch                        | 213,3                                       | 136,6   | 50,1                                     | 111,6  |
| Hazorasp                       | 109,8                                       | 100,4   | 23,2                                     | 97,8   |
| Tuproqqal'a                    | 2076,9                                      | 110,2   | 1749,4                                   | 138,4  |
| Xonqa                          | 144,2                                       | 104,0   | 61,0                                     | 111,6  |
| Xiva                           | 68,1  | 108,2   | 20,0                                     | 109,2  |
| Shovot                         | 91,5  | 106,7   | 28,7                                     | 100,0  |
| Yangiariq                      | 96,1  | 120,0   | 25,6                                     | 123,4  |
| Yangibozor                     | 90,9  | 98,7  | 16,3                                     | 95,9   |


<sup>1)</sup>Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan xolda

## Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da



Diagrammada ko‘rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo‘lgan Tuproqqal’a tumani 54,2 foiz, Urganch shahri 14,2 foiz, Urganch tumani 5,6 foiz, Gurlan tumani 3,8 foiz, Xonqa tumani 3,8 foiz, Qo‘shko‘pir tumani 3,5 foiz, Hazorasp tumani 2,9 foizni, Yangiariq tumani 2,5 foiz hamda eng past bo‘lgan Shovot tumani 2,4 foiz, Yangibozor tumani 2,4 foiz, Bog‘ot tumani 2,0 foiz, Xiva tumani 1,8 foiz, va Xiva shahri 1,1 foizni tashkil qildi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida,  
foiz hisobida**



Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e‘tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta‘minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq, Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalaridan 2022- yilning yanvar-mart oylarida 2 327,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuning bilan birga davlat sektorida 11,0 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 0,3 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 3822,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,7 % ni tashkil etdi.


**2022- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan  
sanoat mahsulotlari va iste‘mol mollari ishlab chiqarish, ming so‘m**

| <i>Shahar va tumanlar nomi</i>  | <i>Sanoat mahsulotlari<br/>ishlab chiqarish</i> | <i>Iste‘mol mollari</i> |
|---------------------------------|---|-------------------------|
| <b>Xorazm viloyati bo‘yicha</b> | <b>1 989,1</b>                                  | <b>1 222,0</b>          |
| Urganch sh.                     | 3 690,3   | 1 853,3                 |
| Xiva sh.                        | 431,9   | 236,8                   |
| Bog‘ot                          | 462,0   | 183,1                   |
| Gurlan                          | 967,3   | 233,2                   |
| Qo‘shko‘pir                     | 758,7   | 109,6                   |
| Urganch                         | 1 036,0   | 243,4                   |
| Hazorasp                        | 551,5   | 116,3                   |
| Tuproqqal‘a                     | 36 638,0  | 30 861,8                |
| Xonqa                           | 751,4   | 317,8                   |
| Xiva                            | 454,2   | 133,7                   |
| Shovot                          | 524,1   | 164,1                   |
| Yangiariq                       | 807,0   | 215,1                   |
| Yangibozor                      | 1 014,4   | 182,0                   |

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Tuproqqal‘a tumanida ( 36 638,0 ming so‘m), Urganch shahrida ( 3 690,3 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 989,1 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Qolgan Bog‘ot (462,0 ming so‘m), Xiva tumani (454,2 ming so‘m) va Xiva shahrida (431,9 ming so‘m) ko‘rsatkich past ekanligini ko‘rish mumkin.

**2022- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste‘mol mollarining o‘shishi, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, %da**





### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning xissasi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2022- yil yanvar-mart oylarida viloyatda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 74,2 % ga va ishlab chiqarish hajmi 618,4 mlrd.so‘mni, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,1 % tashkil etmoqda.

## Hududlar bo'yicha yirik va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da (2022-yil yanvar-mart oylari)



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (100,0 %), Xiva (100,0 %), Yangiariq (100,0 %), Yangibozor (50,9 %), Bog'ot (34,9 %), Shovot (29,3 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulush Tuproqqal'a (2,2 %) tumanida kuzatildi.


### Qo'shma korxonalarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida 21 ta qo'shma korxonalar tomonidan 252,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 6,6 % ni tashkil etdi.

### Viloyatda qo'shma korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %




### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo'yicha qo'shma korxonalarining umumiy hajmidagi ulushi %




### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 361 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 825 tasi (18,9 %) – Urganch shahri, 510 tasi (11,7 %) – Urganch tumani, 401 tasi (9,2 %) – Qo'shko'pir tumani, 387 tasi, (8,9 %) – Xonqa tumani hissasiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik**  
(2022-yil yanvar-mart)



Viloyatda 2022-yilning yanvar-mart oylarida 319 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil qilingan bo'lib, shularning 35 tasi Urganch shahriga, 44 tasi Qo'shko'pir tumaniga, 40 tasi Bog'ot tumaniga, 32 tasi Xiva shahriga, 32 tasi Xonqa tumaniga, 27 tasi Urganch tumaniga, 27 tasi Gurlan tumaniga, 21 tasi Hazorasp tumaniga to'g'ri keladi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 111 ta loyiha bo'yicha 210,2 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**


|                                    | 2021-yil yanvar-mart | 2022-yil yanvar-mart |
|------------------------------------|----------------------|----------------------|
| Loyihalar soni, birlik             | 92                   | 111                  |
| Korxonalar soni, birlik            | 65                   | 94                   |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm | 38,4                 | 210,2                |



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari  
(2022- yil yanvar-mart)**

|                 | <i>Loyihalar soni, birlikda</i> | <i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</i> | <i>Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari</i> | <i>Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda</i> |
|-----------------|---------------------------------|---|---|--|
| <b>Jami:</b>    | <b>111</b>                      | <b>210,2</b>                              | <b>0,8</b>  | <b>389</b>   |
| <i>shundan;</i> |                                 |   |   |  |
| Urganch sh.     | 29                              | 38,6                                      | 0,1   | 110  |
| Xiva sh.        | 3                               | 0,05                                      | -   | -  |
| Bog'ot          | 4                               | 3,04                                      | -   | 15   |
| Gurlan          | 12                              | 12,3                                      | -   | 23   |
| Qo'shko'pir     | 4                               | 0,001                                     | -   | 3  |
| Urganch         | 10                              | 6,03                                      | -   | 5  |
| Hazoraspi       | 5                               | 0,04                                      | -   | -  |
| Tuproqqal'a     | 16                              | 136,0                                     | 0,7   | 222  |
| Xonqa           | 5                               | 3,2                                       | -   | -  |
| Xiva            | 6                               | 0,6                                       | -   | 5  |
| Shovot          | 6                               | 9,1                                       | -   | 5  |
| Yangiariq       | 4                               | 0,8                                       | -   | -  |
| Yangibozor      | 7                               | 0,5                                       | -   | 1  |

## Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda



### Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeklari** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

**Iste'mol mollari** – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

**Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** – boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

**Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash** Evrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

**Mahalliyashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

**Mahsulot sotish hajmi** – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.